

XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 368,2 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,9 %ga oshganini ko‘rish mumkin. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori miqdori Olmaliq shahrida – 6 914,0 ming so‘mni (158,3 %), Nurafshon shahrida – 5 261,9 ming so‘mni (120,5 %), Qibray tumanida – 5 255,0 ming so‘mni (120,3 %) Bekobod shahrida – 5 150,6 ming so‘mni (117,9 %), tashkil etdi.

Aksincha, Bo‘ka tumanida – 2 530,9 ming so‘mni (57,9 %), Bekobod tumanida – 2 658,5 ming so‘mni (60,9 %), Piskent tumanida – 2 744,0 ming so‘mni (62,8 %), Parkent tumanida – 2 768,0 ming so‘mni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichni pasayganligini ko‘rish mumkin.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining
viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da**
(2023- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Hudud nomi	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	3 674,1	4 368,2	118,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	4 372,7	5 261,9	120,3
Olmaliq	5 958,6	6 914,0	116,0
Angren	2 889,4	3 632,1	125,7
Bekobod	5 026,1	5 150,6	102,5
Chirchiq	3 485,4	4 273,2	122,6
Ohangaron	3 701,1	4 295,5	116,1
Yangiyo'l	2 726,9	3 314,8	121,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	2 468,6	2 839,7	115,0
Ohangaron	3 558,4	4 518,3	127,0
Bekobod	2 083,4	2 658,5	127,6
Bo'stonliq	2 938,4	3 532,8	120,2
Bo'ka	2 325,8	2 530,9	108,8
Quyichirchiq	2 512,0	2 887,9	115,0
Zangiota	2 866,1	3 472,9	121,2
Yuqori Chirchiq	3 130,0	3 191,3	102,0
Qibray	3 799,0	5 255,0	138,3
Parkent	2 257,7	2 768,0	122,6
Piskent	2 344,5	2 744,0	117,0
O'rta Chirchiq	2 902,7	3 442,7	118,6
Chinoz	2 405,1	3 256,4	135,4
Yangiyo'l	2 857,9	3 652,0	127,8
Toshkent	2 669,8	3 307,8	123,9


**Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda**

(2023- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz)



**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o'tgan yilgan nisbatan o'sish sur'atlari, %da
(2023- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




Ish haqi. 2023- yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda (*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm*):



Ta'lim sohasida ishlovchilar soni 86 208 nafarni tashkil etdi.

Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 996,9 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 115,4 %ga o'sdi.



Sanoat sohasida ishlovchilar soni 113 054 nafarni tashkil etdi.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 491,8 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 115,9 %ga o'sdi.



Qurilish sohasida ishlovchilar soni 4 244 nafarni tashkil etdi.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 592,2 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 139,1 %ga o'sdi.

**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**



Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilar soni 5 072 nafarni tashkil etdi.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 418,3 ming soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 134,6 %ga oʻsdi



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida ishlovchilar soni 43 237 nafarni tashkil etdi.

Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 790,7 ming soʻmga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 120,7 %ni tashkil qildi.



Tashish va saqlash sohasida ishlovchilar soni 2 291 nafarni tashkil etdi.

Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 044,6 ming soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 137,0 %ga oʻsdi.

**Oʻrtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**



Moliyaviy va sugʻurta faoliyati sohasida ishlovchilar soni 3 258 nafarni tashkil etdi.

Moliyaviy va sugʻurta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 9 534,6 ming soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 133,6 %ga oʻsdi.

Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Maʼlumot uchun: “Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” koʻrsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki koʻrsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa toʻlovlarni oʻz ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq toʻlash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini toʻliq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq toʻlash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 28- martdagi PF-45-son Farmoniga binoan 2023- yil 1- maydan 980 000 soʻmni tashkil etmoqda) boʻyicha belgilangan miqdordan oz boʻlishi mumkin emasligi koʻrsatib oʻtilgan.

Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi